

Qarz oluvchining hayotini ixtiyoriy individual sug'urtalash bo'yicha OMMAVIY OFERTA

Toshkent shahri

01.09.2026y.

Ushbu Ommaviy oferta (bundan keyin matnda "*Oferta*" deb ataladi) "TBC Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining ("*Sug'urtalovchi*") O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan 12.03.2025-yilda berilgan 660718-sonli litsenziya asosida faoliyat yurituvchi, Mijozlarning nomuayyan doiradagi jismoniy shaxslariga ("*Sug'urtalanuvchi*" yoki "*Mijoz*" yoki "*Qarz oluvchi*") Sug'urtalovchi Agentning axborot tizimlari ("*Axborot tizimlari*") orqali quyidagi sug'urta shartlari asosida Sug'urta shartnomasini ("*Sug'urta shartnomasi*") tuzish taklifi hisoblanadi. Shartnomaning Tomonlari Sug'urtalovchi, Sug'urtalanuvchi va Naf oluvchidan iboratdir.

Sug'urta shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi, 369-moddasining 2-qismi va 370-moddasiga (keyingi o'rinlarda – "*Oferta*"), shuningdek, hayotni sug'urtalash tarmog'ining V sinfiga muvofiq ommaviy oferta shaklida tuziladi. Shartnoma Mijoz tomonidan mazkur Ofertada nazarda tutilgan harakatlar amalga oshirilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va bu Mijozning mazkur Ofertani hech qanday istisno, cheklov va izohsiz so'zsiz qabul qilganini anglatadi.

Sug'urta shartnomasi ushbu Oferta shartlari qabul qilinganidan va Sug'urta agentining Axborot tizimlari orqali Sug'urta mukofoti to'langanidan (*keyingi o'rinlarda "Aksept" deb ataladi*) keyin tuzilgan (akseptlangan) hisoblanadi.

Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish va Sug'urta mukofotini to'lash orqali Sug'urta qildiruvchi o'z huquqiy va muomala layoqatini tasdiqlaydi, shuningdek, Sug'urta shartnomasini tuzish natijasida zimmasiga yuklanadigan majburiyatlar uchun javobgarlikni anglab yetganini bildiradi.

1-BO'LIM. ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TA'RIFLAR

Agar biron-bir tushuncha yoki ta'rifning ma'nosi qonunchilik va me'yoriy hujjatlardan kelib chiqqan holda belgilanmagan va belgilanishi mumkin bo'lmasa, agar ushbu Oferta matnidan yoki undan foydalanish kontekstidan boshqacha tartib kelib chiqmasa, bunday tushuncha yoki ta'rif o'zining odatdagi lug'aviy ma'nosida qo'llaniladi.

Ushbu Ofertada qo'llaniladigan asosiy tushunchalar va ta'riflar:

Sug'urtalovchi – "TBC Sug'urta" AJ (Ro'yxatdan o'tgan manzil: Toshkent sh., Yunusobod tumani, Buyuk Turon MFY, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 1-uy).

Sug'urta agent - Sug'urtalovchi bilan tuzilgan agentlik kelishuviga muvofiq, uning nomidan sug'urta shartnomalarini tuzishni tashkil etish faoliyatini amalga oshiruvchi "TBC Bank" ATB

Sug'urtalanuvchi - Sug'urtalovchi bilan Sug'urta shartnomasini tuzadigan va Sug'urta shartnomasida kelishilgan miqdorda va muddatlarda Sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladigan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs. Ushbu Oferta shartlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashovchi chet el fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Sug'urtalanuvchilar bo'lishi mumkin.

Sug'urtalangan shaxs - Sug'urta davri boshlangan sanada 18 yoshdan 75 yoshgacha bo'lgan, o'z hayotiy faoliyati uchun zarur kundalik maishiy harakatlarni mustaqil ravishda amalga oshirishga qodir, muomalaga layoqatli jismoniy shaxs bo'lib, uning hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq mulkiy manfaatlar sug'urta obyekti hisoblanadi hamda unga nisbatan Sug'urta shartnomasi tuzilgan bo'ladi.

Ushbu Oferta doirasida Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalangan shaxs aynan bir hisoblanadi.

Naf oluvchi - Sug'urta polisida ko'rsatilgan, Sug'urtalanuvchiga kredit taqdim etuvchi hamda sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta to'lovini oluvchi hisoblanadigan tijorat banki yoki mikromoliya tashkiloti.

Geografik hudud -Sodir bo'lgan Sug'urta hodisasi Sug'urtalovchining Sug'urta to'lovini amalga oshirish

majburiyatini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan hudud. Ushbu Oferta doirasida geografik hudud butun dunyo hisoblanadi.

Sug'urta shartnomasi - Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi o'rtasidagi kelishuv bo'lib, unga ko'ra Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi yuz berganda ushbu Ofertada nazarda tutilgan shartlarda Naf oluvchiga Sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyatini oladi, Sug'urta qildiruvchi esa Sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi.

Sug'urta polisi va Sug'urta shartnomasining barcha ilovalari hamda o'zgartirishlari, shuningdek, Sug'urtalanuvchi tomonidan Axborot tizimlari orqali Sug'urtalovchiga taqdim etilgan ma'lumotlar Sug'urta shartnomasining ajralmas qismini tashkil etadi.

Axborot tizimlari - Sug'urta agentining masofaviy bank xizmati tizimi va/yoki Sug'urtalovchining masofaviy xizmat ko'rsatish tizimi.

Sug'urtalangan shaxsning vakili - Sug'urtalangan shaxs vafot etganda, nogiron bo'lgan yoki muomalaga layoqatsiz bo'lgan taqdirda, Sug'urtalangan shaxsning merosxo'ri yoki Sug'urta hodisasiga tegishli ma'lumot/hujjatlarni taqdim etuvchi boshqa jismoniy shaxs.

Kredit shartnomasi - Qarz oluvchi (Sug'urta qildiruvchi) va Naf oluvchi o'rtasida Axborot tizimlari vositasida tuziladigan, barcha qo'shimchalar, o'zgartirishlar va ilovalarni o'z ichiga olgan hamda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun asos bo'ladigan shartnoma.

Baxtsiz hodisa - Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati davomida sodir bo'lgan, Sug'urtalangan shaxsning irodasiga bog'liq bo'lmagan hamda uning jarohatlanishi, salomatligining buzilishi, nogiron bo'lib qolishi yoki vafot etishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tasodifiy, kutilmagan va oldindan ko'rib bo'lmaydigan holat.

Sug'urta hodisasi - Sug'urta holatini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan hodisa.

Sug'urta holati – sodir bo'lgan Sug'urta hodisasi natijasida Sug'urtalovchida Naf oluvchiga Sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyati vujudga kelishi.

Sug'urta davri - Sug'urta shartnomasi amal qiladigan davr. Sug'urtalovchi ushbu Sug'urta davrida yuz bergan Sug'urta holatlari bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Sug'urta davri Sug'urta polisida ko'rsatilgan.

Nogironlik - sug'urta davri mobaynida yuz bergan va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan baxtsiz hodisa tufayli I guruh nogironligi. Ushbu Oferta doirasida I guruh nogironligi deganda vaqtinchalik, to'liq va/yoki doimiy qisman mehnatga layoqatsizlikni o'z ichiga olmaydigan doimiy, barqaror va to'liq mehnat qobiliyatini yo'qotish tushuniladi.

Kreditning sug'urta summasi - ushbu Oferta shartlariga muvofiq Qarz oluvchining sug'urtasi amalga oshiriladigan Kredit summasi

Sug'urta to'lovi – sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchi tomonidan Naf oluvchiga Sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va miqdorda to'lanadigan pul mablag'lari.

Sug'urta mukofoti - sug'urta to'lovining qiymati bo'lib, Sug'urtalanuvchi Sug'urtalovchiga Sug'urta shartnomasida kelishilgan muddatlarda butun Sug'urta davri uchun bir vaqtdagi to'lov majburiyatini oladigan pul mablag'lari summasida ifodalanadi.

Sug'urta summasi - Sug'urta shartnomasi doirasida Sug'urta to'lovini amalga oshirish bo'yicha Sug'urtalovchi majburiyatlarining cheklangan miqdori. Sug'urta summasi Sug'urta shartnomasi shartlariga muvofiq belgilanadi va Sug'urta polisida yozib qo'yiladi.

Sug'urta polisi - Sug'urta mukofoti to'langanidan so'ng Sug'urtalanuvchiga beriladigan va Sug'urta shartnomasi tuzilganini tasdiqlaydigan hujjat.

Kredit - ushbu Oferta maqsadlarida mazkur atama ostida bank kreditlari va qarzlar, shuningdek, Naf oluvchining maqomiga qarab mikromoliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan qarzlar tushuniladi.

2-BO'LIM. SHARTNOMA PREDMETI

- 2.1. Ushbu Sug'urta shartnomasining predmeti – Sug'urta hodisasi yuz berganda Qarz oluvchi Kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatida Naf oluvchida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar xavfi bilan bog'liq mulkiy manfaatlarni sug'urtalashdir. Sug'urta hodisasi yuz berganda, Sug'urtalovchi ushbu Ofertada nazarda tutilgan tartibda va miqdorda Naf oluvchiga Sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyatini oladi.

3-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMASINI TUZISH VA UNING AMAL QILISH TARTIBI

- 3.1 Sug'urta shartnomasi Sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davri boshlangan sanadan e'tiboran kuchga kiradi. Sug'urtalovchining sug'urta to'lovini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlari Sug'urta shartnomasi kuchga kirgan vaqtdan boshlab, biroq Sug'urta mukofoti amalda to'langan kundan kechiktirmay yuzaga keladi.
- 3.2 Sug'urta shartnomasining amal qilishi, Sug'urta polisida ko'rsatilgan yakuniy sananing 23:59 da tugaydi, uning Sug'urtalovchining murojaatiga ko'ra bekor qilinishi, muddatidan oldin to'xtatilishi, shuningdek, Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning ushbu Ofertada nazarda tutilgan tartibda to'liq muddatidan oldin bajarilishi hollari bundan mustasno. Bunda Tomonlarning majburiyatlari ular to'liq bajarilguniga qadar saqlanib qoladi.
- 3.3 Sug'urta shartnomasi Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta agentining Axborot tizimlari orqali Sug'urtalovchiga taqdim etilgan ma'lumotlar asosida elektron shaklda shakllantiriladi.
- 3.4 Sug'urta agentining Axborot tizimlari orqali Sug'urta shartnomasini rasmiylashtirishda Sug'urta qildiruvchi taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligi uchun javobgar hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlar avtomat tarzda Sug'urta shartnomasiga, so'ngra Sug'urta polisiga ko'chiriladi va hujjatlarning asl nusxalariga mos kelishi shart.
- 3.5 Tomonlar ushbu Ofertaning qabul qilinishi va Sug'urta mukofotining to'lanishi Sug'urta shartnomasi tuzilganligining tegishli tasdig'i ekanligini tasdiqlaydilar.
- 3.6 Agar Sug'urta polisi faqat texnik nosozlik tufayli chiqarilmagan bo'lsa va uni chiqarish uchun boshqa to'siqlar bo'lmasa, Sug'urtalovchi bunday nosozlik bartaraf etilgandan so'ng Sug'urta polisini chiqarishga yoki to'langan Sug'urta mukofotini Sug'urta qildiruvchiga qaytarishga haqli. Sug'urta polisi chiqarilguniga qadar sug'urta qoplamasini taqdim etish tasdiqlanmagan deb hisoblanadi.
- 3.7 Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash Axborot tizimlari orqali amalga oshiriladi.
- 3.8 Sug'urta davri Sug'urta polisida ko'rsatilgan shartlarga muvofiq bir yil va undan ortiq muddatga belgilanadi.

4-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMASINI BEKOR QILISH TARTIBI

- 4.1. Sug'urta shartnomasi quyidagi hollarda haqiqiy emas deb topiladi va Sug'urtalovchi Sug'urta shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlardan ozod etiladi:
- a) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta to'lovini olish maqsadida qasddan noto'g'ri ma'lumotlar va/yoki axborot taqdim etgan bo'lsa;
 - b) Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanada Sug'urtalanuvchi muomalaga layoqatsiz yoxud huquq layoqatiga ega bo'lmagan;
 - c) Kredit qonunchilik talablari munosabati bilan yoki vakolatli organning, jumladan, Naf oluvchining vakolatli bo'linmalarining qonuniy kuchga kirgan qarori asosida bekor qilingan bo'lsa;
 - d) Sug'urta qildiruvchi Naf oluvchining tegishli tekshiruvdan o'tmaganligi natijasida uning mablag'lari Sug'urtalovchining hisobvarag'iga kelib tushmagan va/yoki Naf oluvchi tomonidan bloklangan/muzlatilgan/bekor qilingan bo'lsa;
 - e) Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining tegishli tekshiruvdan o'tmagan bo'lsa;

- f) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 4.2. Sug'urta shartnomasi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, Sug'urta polisi u rasmiylashtirilgan sanadan boshlab bekor qilinadi. To'langan Sug'urta mukofoti qaytarilmaydi, ushbu Ofertaning 4.1 (c)-kichik bandida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Ko'rsatilgan hollarda, Sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchining ushbu Oferta aksepti vaqtida bildirgan roziligi asosida Sug'urta qildiruvchining Kredit shartnomasi bo'yicha qarzдорligini to'lash uchun Naf oluvchi foydasiga yo'naltiriladi.
- 4.3. Sug'urta shartnomasi quyidagi hollarda avtomat ravishda bekor qilinadi:
- a) Sug'urtalovchi ushbu Sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarganida;
 - b) Sug'urta shartnomasi rasmiylashtirilgan Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlar Sug'urta qildiruvchi tomonidan muddatidan oldin to'liq bajarilgan taqdirda;
 - c) ushbu Sug'urta shartnomasi sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb topilganida;
 - d) Sug'urta qildiruvchi 80 yoshga to'lgan kunda;
 - e) Sug'urta davri tugaganida;
 - a) Sug'urtalovchi tugatilganida;
 - b) sug'urta qildiruvchi vafot etganda, ushbu hodisa Sug'urta hodisasi deb tan olinishidan qat'i nazar;
 - c) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda..
- 4.3. Amaldagi Sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchining tashabbusi bilan, agar murojaat qilingan sanada Sug'urta hodisasi yuz bermagan va u bo'yicha to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, istalgan vaqtda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Muddatidan oldin bekor qilish Sug'urtalovchining Axborot tizimlari orqali Sug'urta qildiruvchining murojaati asosida amalga oshiriladi. Sug'urta shartnomasi Sug'urta qildiruvchining tashabbusi bilan muddatidan oldin bekor qilinganda, qaytarilishi lozim bo'lgan Sug'urta mukofotini hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:
- 4.4.1 Sug'urta shartnomasi tuzilgan kuni Sug'urta qildiruvchi murojaat qilsa, Sug'urta mukofotining 100 (yuz) foizi qaytarib beriladi;
- 4.4.2 Sug'urtalanuvchi Sug'urta shartnomasi tuzilgan kundan keyin murojaat qilgan taqdirda, Sug'urta davrining tugamagan qismi uchun Sug'urta mukofotining 90 (to'qson) foizi qaytarib beriladi. Bunda Axborot tizimlari orqali murojaat qilingan sanadan keyingi kundan boshlanib, Sug'urta polisida ko'rsatilgan Sug'urta davrining so'nggi kuni soat 23:59 da tugaydigan vaqt oralig'i Sug'urta davrining tugamagan qismi hisoblanadi.
- 4.4. Agar Sug'urta qildiruvchi Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini muddatidan oldin to'liq bajarsa, Sug'urtalovchi Kredit shartnomasi yopilgan sanadan boshlab sug'urta shartnomasini avtomatik ravishda yopadi. Bunday hollarda Sug'urtalovchining majburiyatlari to'liq bajarilgan hisoblanadi va Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining Axborot tizimlari orqali murojaat qilgan holatlar bundan mustasno, sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi. Qaytarilishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti quyidagicha hisoblanadi.
- 4.4.1. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasi tuzilgan kuni murojaat qilganda, Sug'urta mukofotining 100 (yuz) foizi qaytariladi;
- 4.4.2. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasi tuzilgan kundan keyin murojaat qilganda, sug'urtaning o'tmagan davri uchun Sug'urta mukofotining 90 (to'qson) foizi qaytariladi.
- 4.5. Sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini buzganligi sababli Sug'urta qildiruvchi ushbu Sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilishni talab qilsa, to'langan sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchiga to'liq hajmda qaytariladi.
- 4.6. Sug'urta qildiruvchi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni buzganligi sababli ushbu Sug'urta shartnomasi Sug'urtalovchi tomonidan muddatidan oldin bekor qilinganda, sug'urta mukofotining tugallanmagan sug'urta davriga to'g'ri keladigan qismining 90 (to'qson) foizi qaytarilishi lozim. Sug'urta mukofoti O'zbekiston Respublikasining

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligida Sug'urtalovchiga nisbatan qo'llaniladigan cheklovlar mavjud bo'lmagan taqdirdagina qaytariladi.

- 4.7. Ushbu Bo'limga muvofiq Sug'urta mukofoti qaytarilishi kerak bo'lgan hollarda, u Sug'urtalovchi tegishli tartibda xabardor qilingan sanadan e'tiboran 7 (yetti) kalendar kun ichida qaytarib beriladi.
- 4.8. Kredit shartnomasining amal qilishi to'xtatilgan taqdirda, bunday to'xtatish sabablaridan qat'i nazar, Sug'urtalovchining u bilan bog'liq Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlari Sug'urtalovchi tomonidan tegishli bildirishnoma olingan sanadan qat'i nazar, Kredit shartnomasi to'xtatilgan sanadan e'tiboran to'xtatiladi.

5-BO'LIM. SUG'URTA HODISALARI VA SUG'URTA HOLATLARI

- 5.1. Sug'urta hodisasi yuz berib, u sug'urta holati deb e'tirof etilgan taqdirda, Sug'urtalovchi Naf oluvchiga sug'urta to'lovini Sug'urta summasi doirasida, ushbu Ofertada nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda, shuningdek, shartlar asosida amalga oshirish majburiyatini oladi.
- 5.2. Ushbu Ofertaga muvofiq sug'urta hodisasi sug'urta davri davomida va geografik hududda sodir bo'lgan quyidagi hodisalardan birining yuz berishidir:
 - a) sug'urtalangan shaxsga Sug'urta davri davomida sodir bo'lgan baxtsiz hodisa natijasida I guruh nogironlikni belgilash, ushbu Ofertaning 6-bo'limida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno. Ushbu Sug'urta shartnomasi doirasida I guruh nogironligi deganda vaqtinchalik, to'liq va (yoki) doimiy qisman mehnatga qobiliyatsizlikni o'z ichiga olmaydigan mehnat qobiliyatining doimiy, barqaror va to'liq yo'qotilishi tushuniladi. Vakolatli organ tomonidan tegishli hujjat berilgan sana nogironlik belgilangan sana hisoblanadi;
 - b) Sug'urtalangan shaxsning ushbu Ofertaning 6-bo'limida ko'rsatilgan holatlardan tashqari har qanday sababga ko'ra vafot etishi.
- 5.3. Ushbu Ofertaning 5.2-bandida ko'rsatilgan hodisalar faqat vakolatli organlar tomonidan berilgan va ushbu Ofertaning 9-bo'limida belgilangan tartib va muddatlarda Sug'urtalovchiga taqdim etilgan tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina Sug'urta hodisalari deb e'tirof etiladi.

6-BO'LIM. SUG'URTA TO'LOVIDAN MUSTASNOLAR

- 6.1. Agar Sug'urta hodisasi bevosita yoki bilvosita quyidagi hodisalar oqibatida yuzaga kelgan yoki sodir bo'lgan bo'lsa, Sug'urtalovchi Sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyatidan ozod etiladi:
 - a) harbiy harakatlar, harbiy manyovrlar, fuqarolar tartibsizliklari, isyonlar yoki boshqa harbiy tadbirlar;
 - b) yadroviy portlash, radiatsiya yoki radioaktiv zararlanish, kimyoviy yoki bakteriologik zararlanish ta'siri;
 - c) giyohvandlik, toksik, psixotrop moddalar yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va ularning har qanday asoratlari; shuningdek, agar Sug'urtalangan shaxs Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan vaqtda ularning ta'siri ostida bo'lgan bo'lsa, giyohvandlik va/yoki psixotrop moddalar sog'lig'i tufayli tegishli litsenziyaga ega shifokor tomonidan tayinlangan holatlar bundan mustasno;
 - d) Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta hodisasi yuz berishidan manfaatdor bo'lgan Sug'urta qildiruvchining merosxo'rlari yoki uchinchi shaxslarning, shuningdek, ularning topshirig'iga binoan harakat qiluvchi shaxslarning qasddan qilgan harakatlari, agar bunday harakatlar Sug'urta hodisasi yuz berishiga qaratilgan bo'lsa;
 - e) o'z joniga qasd qilish yoki o'z joniga qasd qilishga urinish oqibatlari, agar bu vaqtga kelib Sug'urta shartnomasi ikki yildan kam amal qilgan bo'lsa;
 - f) Sug'urtalanuvchi tomonidan tergov organlari yoki sud qasddan huquqbuzarlik alomatlarini

aniqlagan harakatlarning sodir etilishi, bundan ushbu harakatlar Sug'urtalanuvchining o'z fuqarolik burchini bajarishi yoxud o'zining yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi bilan bog'liq bo'lgan hollar mustasno;

- g) Sug'urtalangan shaxsning yuqori xavf bilan bog'liq faoliyatlarda ishtirok etishi: jangovar sport turlari, ovchilik, ekstremal va professional sport, aviatsiya hamda havo sporti bilan shug'ullanishi;
- h) tegishli haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmagan holda transport vositasini va/yoki boshqa mexanik transport vositasini boshqarish, shuningdek, alkogol, giyohvand modda, zaharli yoki psixotrop moddalar ta'siri ostida transport vositasini va/yoki boshqa mexanik transport vositasini boshqarish;
- i) Sug'urtalangan shaxsning politsiya, dengiz floti, armiya, havo kuchlari yoki harbiy operatsiyalar/mashg'ulotlarda xizmat qilishi yoki ishtirok etishi;
- j) Sug'urtalangan shaxsning portlovchi moddalar, harbiy jihozlar, neft mahsulotlari va xavfli kimyoviy moddalar bilan bog'liq kasbiy faoliyati;
- k) agar ushbu Sug'urta shartnomasini tuzish sanasida Sug'urtalangan shaxs II yoki III guruh nogironligiga ega bo'lgan bo'lsa, Sug'urta davri mobaynida Sug'urtalangan shaxsga I guruh nogironligi belgilangan bo'lsa. Ushbu bandning qoidalari faqat nogironlik bilan bog'liq sug'urta hodisalariga nisbatan qo'llaniladi.
- l) Baxtsiz hodisa Sug'urta davridan tashqarida sodir bo'lgan va o'limga yoki I guruh nogironligi belgilanishiga olib kelgan hodisa.

6.2. Sug'urtalovchi quyidagi hollarda ham Sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyatidan ozod etiladi:

- 6.2.1. Sug'urta shartnomasini tuzishda va/yoki Sug'urta hodisasi yuz berganda taqdim etilgan ma'lumotlar hujjatlarning asl nusxalariga mos kelmaganda;
- 6.2.2. Naf oluvchi/Sug'urtalangan shaxs/Sug'urtalangan shaxsning vakili Sug'urta hodisasi yuz berganligi va/yoki uning holatlari va/yoki sabablarini tasdiqlash uchun noto'g'ri ma'lumotlar va/yoki hujjatlarni taqdim etgan bo'lsa;
- 6.2.3. Sug'urtachiga ushbu Ofertaning 9-bo'limida belgilangan tartib va muddatlarda, o'sha bo'limda ko'zda tutilgan hujjatlar taqdim etilmagan;
- 6.2.4. Sug'urtalangan shaxsga nisbatan OFAC, FATF, Yevropa Ittifoqi (YI), Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Buyuk Britaniya (UK), Fransiya Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining sanksiyalariga muvofiq, shuningdek, Sug'urta qiluvchining yoki Naf oluvchining firibgarlikka qarshi kurashish va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga / terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida qabul qilgan ichki qarorlari asosida huquqiy cheklovlar qo'llanilgan, pul mablag'lari va/yoki moliyaviy operatsiyalari to'xtatib qo'yilgan yoki muzlatilgan hollarda.
- 6.2.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6.3. Sug'urtalovchi Sug'urta polisi kuchga kirgunga qadar yoki uning amal qilish muddati tugagandan so'ng yuzaga kelgan majburiyatlar bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

7-BO'LIM. TOMONLARNING MAS'ULIYATLARI

7.1. Sug'urtalovchi o'z vakolati doirasidan tashqarida bo'lgan voqealar va holatlar, shuningdek, uchinchi shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar va zararlar uchun javobgar bo'lmaydi, ya'ni:

- Sug'urta qildiruvchi va/yoki Sug'urtalangan shaxs vakili tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning noaniq, to'liq emas, yetarli emas yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganligi sababli majburiyatlarni bajarish imkoni bo'lmagan hollarda;
- Sug'urta qildiruvchi va/yoki Sug'urtalangan shaxs vakili ushbu Oferta shartlarini yoki hujjatlarni

rasmiylashtirish talablarini buzgan taqdirda;

- Sug'urtalangan shaxsga nisbatan OFAC, FATF, Yevropa Ittifoqi (YI), Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Buyuk Britaniya (UK), Fransiya Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining sanksiyalariga muvofiq, shuningdek, firibgarlikka qarshi kurashish va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish/terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchining ichki qarorlari asosida huquqiy cheklovlar qo'llanilgan, pul mablag'lari va/yoki moliyaviy operatsiyalari to'xtatib turilgan yoxud muzlatib qo'yilgan hollarda;
- ushbu Sug'urta shartnomasi doirasida taqdim etilgan hujjatlarning asl nusxaligi, ishonchliligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi uchun.

- 7.2. Tomonlar ushbu Oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari va/yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun mazkur Oferta va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda va shartlarda javobgar bo'ladilar.
- 7.3. Agar ushbu Oferta bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi Sug'urta shartnomasi tuzilganidan keyin yuzaga kelgan va tegishli Tomonning oqilona nazorati doirasidan tashqarida bo'lgan yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining oqibati bo'lsa, Tomonlar bunday bajarilmaslik yoki lozim darajada bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladi. Yengib bo'lmas kuch holatlari ta'siriga tushgan Tomon boshqa Tomonni oqilona muddatda, biroq ular yuzaga kelgan vaqtdan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan kechiktirmay, tasdiqlovchi hujjatlarni (mavjud bo'lsa) ilova qilgan holda xabardor qilishi shart.
- 7.4. Ushbu Ofertaning biror-bir bandining sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi qolgan bandlarning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

8-BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

8.1. Sug'urtalanuvchi huquqlari:

- a) Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati davomida uning shartlari bo'yicha Sug'urtalovchidan maslahatlar olish;
- b) Sug'urtalovchidan u Sug'urta shartnomasi bo'yicha qabul qilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish;
- c) Sug'urtalovchiga u tomonidan nazarda tutilgan usulda murojaat qilish yo'li bilan Sug'urta shartnomasining amal qilishini muddatidan oldin to'xtatish.

8.2. Sug'urtalanuvchi / Sug'urtalangan shaxs vakilining majburiyatlari:

- a) Sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va muddatlarda Sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lash;
- b) Sug'urta shartnomasini tuzish vaqtida Sug'urtalovchiga Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur bo'lgan ishonchli axborot va ma'lumotlarni xabar qilishi, shuningdek, ularning hujjatlarning asl nusxalariga muvofiqligini ta'minlashi;
- c) Sug'urtalovchining sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyatiga olib kelishi mumkin bo'lgan hodisa yuz berganda, bu haqda Sug'urtalovchini darhol xabardor qilish hamda ushbu Ofertaning 9.1-bandida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda barcha zarur hujjatlarni taqdim etish.

8.3. Sug'urtalovchi huquqlari:

- a) Sug'urta agentidan ushbu Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni, shu jumladan, agar to'lov to'g'risidagi talab Sug'urta agenti tomonidan qo'yilgan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchining majburiyatlarini bajarishni talab qilish. Bunda bunday majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari xavfi Sug'urta agenti zimmasida bo'ladi;
- b) agar Shartnoma tuzilganidan so'ng Sug'urta qildiruvchining Shartnoma tuzilgan sanada

muomalaga layoqatsiz yoki huquqiy layoqatsiz bo'lganligi aniqlansa yoxud Sug'urta qildiruvchi ushbu Ofertaning 8.2-bandi "b" kichik bandida nazarda tutilgan bila turib yolg'on ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa, Sug'urta shartnomasini haqiqiy emas deb topishni talab qilish;

- c) agar Sug'urta agenti yoki Sug'urta qildiruvchi / Sug'urtalangan shaxsning vakili Sug'urta hodisasini aniqlash uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni to'liq hajmda va ushbu Ofertaning 9.1-bandida nazarda tutilgan muddatda taqdim etmasa, to'lovni rad etish;
- d) agar Sug'urta hodisasi holatlari munosabati bilan jinoiy ish qo'zg'atilgan yoki sud muhokamasi olib borilayotgan bo'lsa, tergov yoki sud jarayoni tugagunga qadar to'lov to'g'risida qaror qabul qilishni kechiktirish;
- e) tomonlarning kelishuviga ko'ra Sug'urta shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish. Bunda, agar o'zgartirishlar Sug'urta qildiruvchi uchun shart-sharoitlarni yaxshilasa, Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchining roziligi talab qilinmaydi;
- f) Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati mobaynida Naf oluvchidan Sug'urtalanuvchining to'lov intizomi to'g'risidagi, shuningdek, Kredit shartnomasi shartlarining bajarilishi va o'zgarishi haqidagi axborotni so'rab olish.
- g) Sug'urtalangan shaxsga nisbatan OFAC, FATF, Yevropa Ittifoqi (YI), Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Buyuk Britaniya (UK), Fransiya Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining sanksiyalariga muvofiq huquqiy cheklovlar qo'llanilgan, uning pul mablag'lari va/yoki moliyaviy operatsiyalari to'xtatib turilgan yoki muzlatilgan taqdirda, shuningdek, Sug'urtalovchi yoki Naf oluvchining fribgarlikka qarshi kurashish va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga/terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida qabul qilgan ichki qarorlari asosida to'lovni amalga oshirishdan bosh tortish.

8.4. Sug'urtalovchi majburiyatlari:

- a) Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta polisining berilishini ta'minlash;
- b) Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda Sug'urta to'lovini amalga oshirish;
- c) o'zining kasbiy faoliyati natijasida Sug'urtalanuvchining sog'lig'i va mulkiy ahvoli to'g'risidagi olingan ma'lumotlarni, shuningdek, Kredit shartnomasida ko'rsatilgan tijorat shartlari bo'yicha Naf oluvchining axborotini oshkor qilmaslik;
- d) Naf oluvchining yozma talabiga ko'ra unga Sug'urtalanuvchi tomonidan Sug'urta shartnomasi shartlari bajarilish jarayoni to'g'risida axborot taqdim etish;
- e) oqilona muddatda, biroq 30 (o'ttiz) kalendar kundan kechiktirmay Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchini Sug'urta shartnomasini bekor qilish niyati to'g'risida yozma shaklda xabardor qilish, Sug'urtalovchi tomonidan unda nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha Sug'urta shartnomasini muddatidan oldin va darhol bekor qilish huquqini qo'llash hollari bundan mustasno, yoki unga o'zgartirishlar kiritish, bunday o'zgartirishlar Sug'urta qildiruvchi uchun shart-sharoitlarni yaxshilaydigan hollar bundan mustasno;
- f) Sug'urta qildiruvchining Sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga ta'sir etuvchi holatlar yuzaga kelgan taqdirda, Foyda oluvchini xabardor qilish.

8.5. Naf oluvchi huquqlari:

- a) Sug'urtalovchidan u Sug'urta shartnomasi bo'yicha qabul qilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish;
- b) Sug'urtalovchiga Sug'urta shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida yozma shaklda murojaat qilish;
- c) Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati mobaynida Sug'urtalovchidan Sug'urtalanuvchining Sug'urta shartnomasi shartlari bajarganligi to'g'risida axborot so'rash;
- d) Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati davomida uning shartlari bo'yicha

Sug'urtalovchidan maslahatlar olish;

- e) kreditni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Axborot tizimlari orqali yoki Sug'urtalovchi bilan kelishilgan boshqa usulda xabarnoma yuborish orqali Sug'urtalovchidan Sug'urta shartnomasining amal qilishini muddatidan oldin to'xtatishni talab qilish.

8.6. Naf oluvchi majburiyatlari:

- a) Sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish;
- b) Kredit shartnomasining amal qilishi muddatidan oldin to'xtatilganligi to'g'risida Sug'urtalovchini xabardor qilish;
- c) Sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan hodisa yuz berganda, barcha zarur hujjatlarni taqdim etgan holda, ushbu Ofertaning 9.1 va 10.3-bandlarida belgilangan muddatlarda Sug'urtalovchini xabardor qilish;
- d) Sug'urtalovchining so'roviga ko'ra Sug'urtalanuvchining to'lov qobiliyati holati (Kredit shartnomasi talablariga muvofiq), Kredit shartnomasining joriy bajarilishi va unga kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risida axborot taqdim etish.

8.7. Naf oluvchi foydasiga Sug'urta shartnomasining tuzilishi Sug'urtalanuvchini uning Sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

9-BO'LIM. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH

9.1. Sug'urtalovchining sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyati kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa yuz berganda, Sug'urta qildiruvchi va/yoki Sug'urtalangan shaxsning vakili darhol, ammo hodisa yuz bergan yoki uning yuz berganini tasdiqlovchi hujjat olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan kechiktirmasdan, Sug'urtalovchining axborot tizimlari orqali yoxud ushbu Ofertada belgilangan boshqa usulda Sug'urtalovchi nomiga sug'urta to'lovini to'lash to'g'risidagi arizani yuborishi shart. Arizaga quyidagi hujjatlar (mavjud bo'lsa) ilova qilinadi:

- a) Sug'urtalangan shaxs vafot etganida — o'lim haqidagi tibbiy guvohnomaning asli yoki nusxasi ilova qilingan o'lim haqidagi guvohnomaning asli yoki nusxasi;
- b) I guruh nogironligi boshlanganida — mehnat qobiliyatini to'liq doimiy yo'qotganlikni tasdiqlovchi I guruh nogironligini belgilash to'g'risidagi TMEK ma'lumotnomasining uni bergan tashkilot tomonidan tasdiqlangan asli yoki nusxasi;
- c) agar o'lim yoki nogironlik baxtsiz hodisa oqibatida yuz bergan bo'lsa — baxtsiz hodisa faktini tasdiqlovchi hamda yuz bergan voqeaning joyi, holatlari va sabablari haqidagi ma'lumotni o'z ichiga olgan hujjatning asli yoki nusxasi;
- d) Sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida Sug'urtalovchi xabardor qilingan sanaga, tegishli Kredit shartnomasi bo'yicha Sug'urta qildiruvchining asosiy qarz va hisoblangan foizlar yuzasidan to'lanmagan qarzдорligi miqdori haqida Naf oluvchi tomonidan imzolangan ma'lumotnomaning asl nusxasi yoki nusxasini;
- e) Sug'urta hodisasi bo'yicha murojaat qilgan arizachining shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasi.

Hujjatlar ularni identifikatsiya qilish va tekshirishni ta'minlaydigan shaklda, shu jumladan sug'urtalovchining talabiga ko'ra asl nusxalarini yoki notarial tasdiqlangan nusxalarini so'rab olish yo'li bilan taqdim etilishi kerak.

9.2. Zarurat tug'ilganda, Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni, shuningdek, Sug'urtalovchiga avval taqdim etilgan hujjatlarning asl nusxalarini yoki notarial tasdiqlangan nusxalarini so'rab olishga haqli.

9.3. Sug'urtalovchi mustaqil ravishda yoki uchinchi shaxslar orqali huquqni muhofaza qiluvchi, sud, tibbiy yoki boshqa vakolatli organlar va tashkilotlardan Sug'urta hodisasi bilan bog'liq ma'lumotlar va hujjatlarni so'rab olishga, shuningdek, hodisa yuz bergan holatlarni o'zi tekshirishga haqli.

- 9.4. Agar Naf oluvchi Sug'urta hodisasi yuz berganidan xabardor bo'lsa, u Sug'urtalovchini xabardor qilgan sanadagi holatga ko'ra, Sug'urta qildiruvchining tegishli Kredit shartnomasi bo'yicha to'lanmagan asosiy qarzi va hisoblangan foizlari miqdorini ko'rsatgan holda, Sug'urta to'lovini to'lashni so'rab, Sug'urtalovchiga ariza yuborishga haqli. Bunday murojaat Sug'urta qildiruvchini va/yoki uning Vakilini keyinchalik hujjatlarning to'liq to'plamini taqdim etish majburiyatidan ozod qilmaydi. Sug'urta to'lovini to'lash yoki to'lashni rad etish to'g'risidagi qaror Sug'urtalovchi tomonidan ushbu Ofertada belgilangan tartibda qabul qilinadi.
- 9.5. Sug'urtachi ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olgach, arizada keltirilgan hodisani belgilangan tartibda o'rganadi, xususan, taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi to'g'risida tasdiqnoma oladi, shundan so'ng sodir bo'lgan hodisaning Sug'urta hodisasi ta'rifiga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qiladi.
- 9.6. Agar mavjud ma'lumotlar asosida yuz bergan hodisaning holati va xususiyatini ishonchli tarzda aniqlash mumkin bo'lsa, Sug'urtalovchi ushbu Ofertaning 9.1-bandida ko'rsatilgan hujjatlarning to'liq ro'yxatini taqdim etmasdan ham hodisani Sug'urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.
- 9.7. Agar Sug'urta to'lovi to'g'risidagi ariza olingan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida hodisani Sug'urta hodisasi deb e'tirof etish va Sug'urta to'lovi miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarning to'liq ro'yxati taqdim etilmasa, Sug'urtalovchi sug'urta ishini yopishga haqli. Agar Naf oluvchi oldidagi qarzidorlik yopilgan bo'lsa, sug'urta ishining yopilishi ushbu Ofertaning 9-bo'limida nazarda tutilgan barcha hujjatlar keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, xuddi shu Sug'urta hodisasi bo'yicha takroran murojaat qilishga to'sqinlik qilmaydi.
- 9.8. Agar sug'urta ishi zarur hujjatlar taqdim etilmagani sababli yopilsa, Sug'urtalovchi bu haqda Naf oluvchiga, Sug'urta qildiruvchiga va (yoki) Sug'urtalangan shaxsning vakiliga tegishli xabarnoma yuboradi. Agar sug'urta ishining materiallarida bunday xabarnomani yuborish uchun zarur bo'lgan Sug'urta qildiruvchining va/yoki Sug'urtalangan shaxs vakilining to'liq aloqa ma'lumotlari mavjud bo'lmasa, xabarnoma faqat Naf oluvchiga yuboriladi.
- 9.9. Sug'urta to'lovi yoki sug'urta to'lovini rad etish to'g'risidagi qaror barcha zarur hujjatlar, shu jumladan vakolatli organlar yoki boshqa tashkilotlardan qo'shimcha so'ralgan ma'lumotlar va tasdiqnomalar olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) ish kuni ichida qabul qilinadi.
- 9.10. Agar Sug'urta hodisasi yuz berishiga sabab bo'lgan faktlar bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atilgan yoki sud jarayoni boshlangan bo'lsa, Sug'urtalovchi tergov yoki sud muhokamasi tugaguniga qadar yoxud Sug'urtalangan shaxsning yoki Naf oluvchining aybsizligi aniqlanguniga qadar Sug'urta to'lovi to'g'risidagi qarorni kechiktirishga haqli.
- 9.11. Sug'urta to'lovi rad etilgan taqdirda, Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi bo'yicha qaror qabul qilingandan so'ng 15 (o'n besh) ish kunidan kechiktirmay bu haqda Naf oluvchiga xabar berishi shart. Rad etish sabablari asoslantirilgan bo'lishi kerak.

10-BO'LIM. SUG'URTA TO'LOVI MIQDORI VA UNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

- 10.1. Sug'urta to'lovi miqdori — Sug'urta qildiruvchining sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida Sug'urtalovchini xabardor qilgan sanadagi Kredit shartnomasi bo'yicha Naf oluvchi oldidagi asosiy qarz (joriy qarzidorlik ham, muddati o'tgan qarzidorlik ham) va foizlar (hisoblangan ham, muddati o'tgan ham, biroq jarimalar, penyalar va kreditni to'lash bilan bog'liq boshqa har qanday yuzaga keladigan majburiyatlar va/yoki to'lovlar bundan mustasno) bo'yicha qarzidorligi sifatida aniqlanadi.
- 10.2. Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta to'lovining miqdori sug'urta puli (kreditning sug'urtalangan summasi) bilan cheklanadi.
- 10.3. Bunda, agar Sug'urta hodisasi yuz berganligini tasdiqlovchi hujjat Naf oluvchi tomonidan olingan bo'lsa, Naf oluvchi ushbu hujjatni darhol, lekin uni olgan sanadan keyingi ish kunidan kechiktirmay Sug'urtalovchiga taqdim etishi shart. Ushbu muddatga rioya qilmaslik Sug'urta hodisasini o'z vaqtida ko'rib chiqishga to'sqinlik qiluvchi shartlarning jiddiy buzilishi deb topilishi mumkin.
- 10.4. Sug'urta hodisasi yuzasidan ijobiy qaror qabul qilinganida, Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasini tartibga solish to'g'risidagi dalolatnomani (keyingi o'rinlarda – Dalolatnoma) tuzadi va uning asosida, mazkur

Dalolatnoma Tomonlar tomonidan imzolanganidan keyin 5 (besh) ish kuni ichida Sug'urta to'lovini amalga oshiradi. Sug'urta to'lovi Naf oluvchining arizasida ko'rsatilgan bank hisob raqamiga o'tkaziladi.

- 10.5. Agar Sug'urtalovchi va (yoki) Sug'urtalangan shaxsning vakili Dalolatnomani olgan kundan e'tiboran 3 (uch) kalendar kun ichida imzolamasa yoxud ko'rsatilgan muddatda asoslantirilgan e'tirozlarini yozma ravishda yubormasa, Dalolatnoma barcha Tomonlar tomonidan kelishilgan hamda e'tirozlarsiz imzolangan hisoblanadi.
- 10.6. Sug'urtalangan shaxsga I guruh nogironligi belgilanishi munosabati bilan Sug'urta to'lovi amalga oshirilgandan so'ng, ushbu Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urtalovchining majburiyatlari to'liq hajmda bajarilgan deb hisoblanadi. Shu munosabat bilan, Sug'urta shartnomasining amal qilishi ushbu Ofertaning 4.3-bandi "a" kichik bandiga muvofiq to'xtatiladi.
- 10.7. Agar Sug'urtalangan shaxsga I guruh nogironligi belgilangan bo'lsa-yu, biroq u Sug'urta to'lovini so'rab murojaat qilishdan oldin yoki Sug'urtalovchi uning arizasi bo'yicha qaror qabul qilguniga qadar vafot etsa, sug'urta to'lovi faqat o'lim sababli, ushbu Ofertaga muvofiq Sug'urta hodisasi tomonidan tan olingan taqdirda amalga oshiriladi.
- 10.8. Bitta Sug'urta shartnomasi doirasida bir Sug'urtalanuvchi bo'yicha faqat bitta sug'urta to'lovi amalga oshirilishi mumkin. Agar holatlar mazkur Oferta shartlarida nazarda tutilgan bir nechta sug'urta hodisasi belgilariga mos kelsa, sug'urta to'lovi Oferta qoidalariga muvofiq faqat ulardan biri uchun to'lanadi.

11-BO'LIM. NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

- 11.1. Ushbu Ofertadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq nizolar, talablar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilish uchun barcha oqilona choralarni ko'rish majburiyatini oladilar. Nizoni hal etishning da'vo tartib-taomili majburiy bo'lib, da'voni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda yozma shaklda yuborishni nazarda tutadi. Da'voni ko'rib chiqish muddati u boshqa Tomon tomonidan olingan sanadan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kunni tashkil etadi.
- 11.2. Ushbu Ofertadan yoki u bilan bog'liq holda kelib chiqadigan nizolar, kelishmovchiliklar yoki talablarni, shu jumladan uni ijro etish, o'zgartirish, tugatish yoki haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq masalalarni hal qilish imkoni bo'lmaganda, agar qonun hujjatlarining qat'iy normalarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Sug'urtalovchi joylashgan joyda sud tartibida ko'rib chiqilishi lozim.

12-BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

- 12.1. Tuzilgan Sug'urta shartnomasiga barcha qo'shimchalar va o'zgartirishlar tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida yozma ravishda kiritilishi lozim, o'zgartirishlar Sug'urta qildiruvchi uchun Shartnoma shartlarini yaxshilaydigan hollar bundan mustasno.
- 12.2. Mazkur Oferta yangilangan taqdirda, o'zgartirishlar faqat shunday o'zgartirishlar kuchga kirgandan keyin Sug'urta shartnomasini tuzgan Sug'urta qildiruvchilarga nisbatan qo'llanadi. O'zgartirishlar kiritilgunga qadar tuzilgan Sug'urta shartnomalari uchun Sug'urta qildiruvchining ahvolini yaxshilaydigan bamlardan tashqari, Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanada amalda bo'lgan Oferta tahriri shartlari qo'llaniladi.

Ushbu qismda yangilangan Oferta qoidalarini Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadan va Sug'urta hodisasi yuz berishidan qat'i nazar qo'llanilishi lozim.

- 12.3. Sug'urtalanuvchi/Sug'urtalangan shaxs Sug'urta shartnomasini tuzish vaqtida Sug'urtalovchiga quyidagilar bo'yicha rozilik beradi:
 - 12.3.1. o'zining shaxsiy ma'lumotlarini, shu jumladan F.I.Sh., pasport va aloqa ma'lumotlari, JSHSHIR, STIR, shifokorlik sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, Sug'urta shartnomasi shartlarini tuzish va bajarish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish, shuningdek, yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish, shu jumladan Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqish maqsadida Sug'urtalovchi va uning hamkorlariga beriladigan hujjatlardagi ushbu Shartnoma maqsadlariga

mos keladigan boshqa ma'lumotlarni qayta ishlash. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish deganda: Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish, yig'ish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), ulardan foydalanish, ularni egasizlantirish, bloklash, yo'q qilish, shuningdek, ular bilan boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirish tushuniladi;

- 12.3.2. sug'urta sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni (jumladan, sug'urtalanuvchilar, sug'urtalangan shaxslar va naf oluvchilar haqidagi, sug'urtalanuvchilar va sug'urtalangan shaxslar sog'lig'ining holati to'g'risidagi, shuningdek, sug'urta summasi bilan bog'liq ma'lumotlarni) Sug'urtalovchiga hamda uning hamkorlariga uzatish;
- 12.3.3. Sug'urta shartnomasi hamda unga ilova qilinadigan boshqa hujjatlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni Sug'urtalashning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga (SYAAT) uzatishga rozilik beradi. Ushbu rozilik O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi hamda "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq berilgan.
- 12.4. Tomonlar o'z rekvizitlari va amaldagi manzili o'zgarganligi to'g'risida yozma xabarnoma yuborish orqali bir-birini zudlik bilan xabardor qilish majburiyatini oladi. Tegishli tarzda xabardor qilinmagan taqdirda, Sug'urta shartnomasi doirasidagi barcha bildirishnomalar dastlabki manzilga/rekvizitlarga yuboriladi va o'z manzilinga o'zgargani haqida xabar bermagan Tomon bu bilan bog'liq xatarlarni o'z zimmasiga oladi.
- 12.5. Sug'urta shartnomasida ko'rsatilmagan tomonlar o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.
- 12.6. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha talablar:
 - Sug'urtalovchi OFAC, FATF, EU (EC), BMT (UN) sanksiya ro'yxatlariga, Fransiya sanksiya ro'yxatiga (Iqtisodiyot va moliya vazirligi), shuningdek, Buyuk Britaniyaning sanksiya ro'yxatlariga kiritilgan jismoniy shaxslar bilan ishbilarmonlik munosabatlariga kirishmaydi.
 - Sug'urtalovchi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga va amaldagi sanksiya tartiblariga rioya etgan holda amalga oshiradi.
 - Sug'urtalovchi sanksiyalar joriy etilgan mamlakatlarning hukumatlari bilan aloqador bo'lgan jismoniy shaxslar bilan munosabatlarga kirishishdan tiyiladi.
 - Bundan tashqari, Sug'urtalovchi mahalliy qonunchilikda belgilangan boshqa sanksiya ro'yxatlaridan va/yoki Sug'urtalovchining yurisdiksiyasiga yoki faoliyat sohasiga taalluqli ro'yxatlardan foydalanadi.
 - Sug'urtalovchi BMT Xavfsizlik Kengashining 1373-sonli (2001-y.) rezolyutsiyasi bilan belgilangan sanksiyalar ostida bo'lgan shaxslar bilan ishbilarmonlik munosabatlariga kirishmaydi va ularga xizmat ko'rsatmaydi. Turli sanksiya tartiblaridan kelib chiqadigan boshqa taqiq va cheklovlar Sug'urtalovchining ichki hujjatlari bilan, mahalliy qonunchilikka, sanksiya talablariga, aniqlangan tavakkalchiliklarga va ushbu tavakkalchiliklarni boshqarish manbalariga muvofiq belgilanadi.
 - Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchidan uni identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan axborot va hujjatlarni, shuningdek, pul mablag'larining kelib chiqishi qonuniyligini hamda amalga oshirilayotgan operatsiyalarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilishga haqlidir.
 - Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda sug'urta xizmatlari ko'rsatishni, Sug'urta shartnomasini tuzish va bajarish bilan bog'liq ayrim operatsiyalarni to'xtatib turishga yoxud ularni amalga oshirishdan bosh tortishga haqlidir.
 - Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining talabiga binoan, amaldagi qonunchilik normalari va Sug'urtalovchining lokal hujjatlariga muvofiq so'ralgan axborot va hujjatlarni taqdim etish majburiyatini oladi. Bunda Sug'urtalovchiga taqdim etiladigan axborot va hujjatlarning to'g'riligi va

haqqoniyligi uchun javobgarlik Sug'urta qildiruvchining zimmasida bo'ladi.

- Sug'urtalovchi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq o'tkazilgan dastlabki identifikatsiyadan so'ng Sug'urta qildiruvchini uning identifikatsiyalash vositasi, shuningdek, arizada va/yoki Sug'urtalovchida mavjud bo'lgan har qanday hujjatda ko'rsatilgan identifikatsion ma'lumotlari yordamida elektron kanallar orqali identifikatsiyalashi mumkin.
- Sug'urta qildiruvchidan olingan ma'lumotlarning haqqoniyligiga shubha tug'ilgan hollarda, uni qayta va har bir takroriy identifikatsiyalash o'tkazilishi mumkin.
- Agar Sug'urta qildiruvchini identifikatsiyalash muvaffaqiyatli o'tmasa, Sug'urtalovchi xizmat ko'rsatmasligi mumkin.
- Sug'urta qildiruvchi har qanday yurisdiksiyaning qonunchiligiga zid bo'lgan biron-bir noqonuniy faoliyatda (jumladan, pul yuvish, qurol-yarog' savdosi, giyohvand moddalar savdosi va/yoki terrorizm bilan shug'ullanish, ammo bular bilan cheklanmagan holda) bevosita yoki bilvosita ishtirok etmaydi.
- Sug'urtalovchi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga muvofiq tegishli tekshiruv o'tkazishga haqlidir.
- Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, Sug'urtalovchining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yoki Sug'urtalovchiga nisbatan moliyaviy, iqtisodiy yoki boshqa sanksiyalar qo'llanilishi xavfi mavjud bo'lganda, Sug'urta shartnomasini tuzishdan, Sug'urta polisini berishdan, Sug'urta to'lovini amalga oshirishdan, Sug'urta mukofotini qaytarishdan yoxud Sug'urta shartnomasi bo'yicha boshqa harakatlarni bajarishdan bosh tortishga haqlidir.

13-BO'LIM. REKVIZITLAR

“TBC Sug'urta” aksiyadorlik jamiyati

Joylashgan manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 1-uy

STIR: 311 448 947

h/r: 2021 6000 1071 0408 4001

Bank: “TBC Bank” ATB

Bank kodi: 01180

Tel.: +998 78 777 67 67

Elektron pochta: contact@tbcsugurta.uz

Sayt: www.tbcsugurta.uz